

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2025-yil 5-sentabr № 9 (1555)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

USTUVOR VAZIFA

Oxirgi 3 yil ichida kombinatda energiya resurslarini tejashga qaratilgan 57 ta chora-tadbirlar amalga oshirilgan.



ULAR XALQ E'TIBORIDA

Mehnatlari bilan ko'pchilikka ibrat bo'layotganlar ishlab chiqarish jarayonlarida sinovdan muvaffaqiyatli o'tishgan.



BIRINCHI QADAM

Ishchi-xodimlar o'rtasida farq diplomda yoki yoshda emas, balki bilim, mas'uliyat va tashabbusda namoyon bo'ladi.




TARAQQIYOT YO'LIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan 30-avgust – 3-sentabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Tashrif doirasida O'zbekiston yetakchisi Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisi va "SHHT plyus" formatidagi sammitda ishtirok etdi. Shuningdek, rasmiy tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida ushbu mamlakatning yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Davlat tashrifi doirasida "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktor B. Abdullayev O'zbekiston Respublikasi energetika vaziri J. Mirzamahmudov bilan birgalikda "Sinoma Energy Conservation Ltd" kompaniyasi rahbariyati bilan muzokaralar o'tkazdi.

Uchrashuv davomida "O'zmetkombinat" ishlab chiqarish quvvatlarining energiya samaradorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda energiya tejash sohasidagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan istiqbolli loyihalar muhokama qilindi.



"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktori Bahodir Abdullayev qator ishbilarmonlik uchrashuvlarida ham ishtirok etmoqda va Xitoyning yetakchi metallurgiya korxonalarida bo'lib "O'zmetkombi-

nat" AJning strategik rivoji uchun zamonaviy texnologiyalar va ilg'or tajribani o'rganmoqda. Asosiy e'tibor innovatsiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalariga qaratilmoqda.

BOSHQARUV RAISI – BOSH DIREKTOR MUHOJATI

KORRUPSIYAGA YO'L QO'YMAVLIK!

Aziz kombinatimiz ishchi-xodimlari!

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida barcha sohalarda shaffoflik, adolat tamoyillari asosida faoliyat yuritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qonun ustuvorligini ta'minlash davlatimiz siyosatida muhim yo'nalishlardan biriga aylangan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish – mamlakatimizda jadal sur'atlarda olib borilayotgan huquqiy islohotlar sharoitida har bir insonning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish hamda qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning barcha huquqiy asoslari yaratilgan. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solib kelmoqda.

Korrupsiya bor joyda haqiqat va adolatga, hech qaysi bir sohaning rivojlanishiga, oldimizga qo'ygan maqsadimizga erisha olmaymiz. Bu illat qonunning qo'pol ravishda buzilishidir.

Korrupsiya – bu nafaqat qonunbuzarlik, balki

ishonchga xiyonat, adolatga, mehnatga, halollikka qarshi qilingan jinoyatdir. U har qanday tashkilotning rivojiga jiddiy to'siq bo'ladi, jamoa ruhiyatini zaiflashtiradi.

Bu xavfli illat kombinatning ichki muhitiga putur yetkazadi, jamoa orasida ishonchni yo'qotadi va eng yomoni, korxonaning uzoq muddatli rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. U halol ishlayotgan xodimlarning haqqini yemiradi. Korxona obro'sini pasaytirib, mijozlar va hamkorlar, investorlar bilan munosabatga putur yetkazadi. Bu esa iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi.

Kombinatimizda korrupsiyaga o'rin bo'lishi mumkin emas. Biz ishlab chiqarayotgan mahsulotlar, texnologik jarayonlar, moliyaviy hisob-kitoblar va kadrlar siyosati – bularning barchasi shaffoflik va halollik tamoyillari asosida boshqarilishi shart.

Biz nafaqat yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, balki halol mehnat orqali jamiyatimizda munosib o'rnimizni egallashni maqsad qilganmiz.

Qadrli metallurglar!

Korrupsiyaga qarshi kurash faqat huquq-tartibot idoralari xodimlarining emas, hammamiz-

ning umumiy burchimiz, fuqarolik mas'uliyatimiz va insonparvarlik qarzimizdir.

Men, kombinat rahbari sifatida, Sizlarni halol, pok, vijdonli va adolatli mehnat qilishga, har qanday shubhali harakatlardan uzoq bo'lishga, o'z huquq va majburiyatlarimizni aniq anglab yetishga chaqiraman. Agar Sizga shubhali holatlar ma'lum bo'lsa, darhol belgilangan tartibda bu haqda xabar bering. Bundan qo'rqmang, chunki "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun bu borada to'liq huquqiy himoyani kafolatlaydi.

Korrupsiya – mamlakatning, jamiyatning, halol mehnatning eng katta dushmani.

Biz faqat shaffof va adolatli muhitdagina chinakam taraqqiyotga erishishimiz mumkin. Mehnatimiz, bilim va sa'y-harakatimiz bilan ishonchli, korrupsiyadan holi va shaffof faoliyat yuritadigan kombinatni barpo etamiz.

Kelajagimiz, farzandlarimizning baxtli hayoti va korxonamiz obro'si uchun halol, pok, mas'uliyatli bo'laylik!

Bahodir ABDULLAYEV,

**"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi –
Bosh direktori.**

ENERGIYA SARFINI KAMAYTIRISH DOLZARB VAZIFA

Hozirgi sharoitda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish iqtisodiy taraqqiyotga erishish hamda jahon bozorida mustahkam o'rin egallashning eng asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish uchun zarur xomashyolar, energiya resurslari va boshqa turli manbalardan tejab-tergab foydalanish, mahsulotlarning ekologik tozaligini ta'minlash hamda tannarxni arzonlashtirish talab etiladi.

Shuning uchun davlatimiz rahbari o'z ma'ruzalarida, xoh katta, xoh kichik bo'lsin, har qanday korxonada ezgu maqsadlar yo'lida islohotlar o'tkazish, fan yutuqlari va jahon tajribalarini, ilg'or texnika va texnologiyalarni qo'llab, ishlab chiqarish xarajatlarini, jumladan, energiya sarfini keskin kamaytirishni mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning o'ta dolzarb va ustuvor vazifalari deb ta'kidlamogda.

Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hamda boshqa vazirliklar buyruq va qarorlari ijrosi doirasida "O'zmetkombinat" AJda har yili elektr energiyasini tejashga qaratilgan texnik chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va yil davomida ular amalga oshirib kelinadi. Shuningdek, energiya resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan ichki buyruqlar rasmiylashtiriladi va bosh energetik xizmati tomonidan nazorat qilinadi.

"O'zmetkombinat" AJda energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish maqsadida Xalqaro Taraqqiyot Assotsiatsiyasi banklari



mablag'lari hamda "O'zmetkombinat" AJning o'z mablag'laridan foydalanib bir necha loyihalar amalga oshirilgan. Oxirgi 3 yil ichida "O'zmetkombinat" AJda energiya resurslarini tejashga qaratilgan 57 ta chora-tadbirlar amalga oshirilgan, ular orasida Xalqaro Taraqqiyot Assotsiatsiyasi banklari mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan loyihalar ham bor. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida kombinatimiz 2024-yil yakuniga qadar 55,046 mln. kVt.soat elektr energiyasi va 4, 824 mln. m³ tabiiy

gazni iqtisod qilgan.

Shu jumladan "O'zmetkombinat" AJ va Xalqaro Taraqqiyot Assotsiatsiyasi banklari mablag'lari hisobiga quyidagi katta loyihalar amalga oshirilgan:

Kombinatning energetika bo'lin-

masidagi 6 ta nasos stansiyalari modernizatsiya qilingan va bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish natijasida yillik elektr energiyasi iste'moli 58,889 mln. kVt. soatdan 34,977 mln. kVt.soatga tushirilgan. Ko'rish mumkinki, nasos stansiyalari modernizatsiyasi hisobiga bitta energetika bo'linmasining elektr energiyasi iste'moli 40,6 foizga kamaygan, ya'ni 23,912 mln. kVt.soat elektr energiyasi tejalgan.

Kombinatning elektr tarmoqlari va podstansiyalar bo'linmasi-

da CHQB podstansiyalariga hamda "Pechnaya" 220/35 kV podstansiyalariga elektr energiyasi sifatini yaxshilash, reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish va elektr energiyasini tejash maqsadida jami 142 150 kVAR reaktiv quvvat kompensatsiya qiluvchi qurilmalar o'rnatilgan. Ushbu loyihalar amalga oshirilishi natijasida yillik 28,612 mln. kVt. soat elektr energiyasi tejalgan.

Hozirgi kunga qadar kombinatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish maqsadida jami 1 555 kVt. quvvatga ega bo'lgan quyosh elektr stansiyalari o'rnatilgan. Ulardan 600 kVt quvvatli quyosh elektr stansiyasi MTBning avtoturargohiga va 900 kVt. quvvatli quyosh elektr stansiyasi EPEB avtoturargohiga o'rnatilgan bo'lib, jami 3,067 mln. kVt.soat elektr energiyasi tejalgan.

2025-yilda kombinatning energiya resurslarini tejashga qaratilgan jami 31 ta chora-tadbirlar rejalashtirilgan. Ulardan 23 tasi elektr energiyasi tejashga qaratilgan bo'lib, 12,434 mln. kVt.soat, 8 tasi tabiiy gaz tejashga qaratilgan bo'lib, 1,026 mln.m³ iqtisod qilish rejasi belgilangan.

Bu chora-tadbirlar nafaqat energiya resurslarini tejash, balki mahsulotlar tannarxlarini pasaytirish va iqtisodiyotimizda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Usmon ABDULLAYEV,
kombinat bosh energetigi.

MEHNAT JAMOALARIDA


Rangli metall ishlab chiqaruvchilar mahsulot tayyorlash bo'yicha yaxshi natijalarga erishib kelayaptilar. Ishlab chiqarishda unumdorlikka erishish oson ish emas. Buning uchun soha xodimlaridan o'z ishiga mas'uliyat bilan qarash talab etiladi. Jamoaning jipsligi, tajriba va malakasi ishlab chiqarish vazifalarini barqaror va o'z vaqtida bajarishga imkon bermogda.

MUVAFFAQIYATLAR OMILI

Zamonaviy, yangi texnologiyalar bilan jihozlangan bu korxona mis va uning qotishmalaridan har xil texnik maqsadlar uchun folga, tasma, tunuka va tilimlar ishlab chiqaradi. Ular elektronika va elektrotexnikada, mashina va asbob-uskunalarini hamda iste'mol mollari ishlab chiqarishda, mashinasozlikda, qurilishda qo'llaniladi.

Korxonaning asosiy texnologik asbob-uskunalarini - mis va uning qotishmalarini eritish va quyish bo'yicha pech, sovuq holatda prokatlash stani, termik qayta ishlash pechi, mahsulot yuzasini tozalash liniyasi, uzunasiga qirqish agregati bir maromda ishlashi ham muvaffaqiyatlar omili bo'lmoqda.

Bekobod rangli metallar ishlab chiqarish korxonasining yillik quv-



vati 3200 tonnani tashkil qiladi. Mahsulotlarning 70 foizdan ziyodi eksportga jo'natiladi. Bu esa mahsulot sifati va raqobatbardoshligi yuqoriligidan darak beradi.

Bozor sharoitida ilg'or texnologiyalar hamda hamkorlar bilan aniq strategiyaning mavjudligi, ahil jamoa korxona rivojiga ishonchli kafolatni ta'minlamogda.

Ismat DIYOROV.

NATIJALAR YUQORI

UYUSHQOQ JAMOA



Ibrohim Xolmatov, Bobur Sheranov va boshqa mutaxassislar bor. Ularning maqsadga intilishlari va ishga oqilona yondashuvlari tufayli brigadalar ishlab chiqarishda yuqori ko'rsatkichlarga erishmogda. Ular sim tortish stanlari, simlarni kuydirish pechlarini bir maromda ishlatishmogda.

Navli prokatlash bo'linmasidan uzatilayotgan 12mm diametrli simlarning hajmi 1,8 diametrgacha keltiriladi. Shuningdek, bozorda yaxshi talabga ega bo'lgan 2,0 mm, 2,8 mm, 3,0 mm, 4,0 mm, 5,0 mm, 6,3 mm va 8,0 mm. diametrli simlar doimiy ravishda ishlab chiqariladi.

Uchastkada oylik rejalar o'z vaqtida bajarilmogda. Joriy yilning sakkiz oylik rejasi ham ado etildi. Mehnat muvaffaqiyatlari- ga erishishda har bir ishchi-xodimning sidqidildan o'z vazifasini bajarishi va jamoaning uyushqoqligi muhim rol o'ynamoqda

Ravshan BOLTABOYEV.

Navli prokatlash bo'linmasining po'lat simlar ishlab chiqarish uchastkasi jamoasi o'z ishiga mas'uliyat bilan, tashabbuskorona yondashadi. Tajribali mutaxassis Rustam Badalov rahbarligida bu yerda 150 nafar ishchi-xodim faoliyat yuritadi.

Sim tortuvchilar kasbiy mahorati va mehnatning aniq tashkil etilishi tufayli uchastkaga yuklatilgan vazifalarni sifatli va o'z vaqtida bajarib, kombinatning iqtisodiy barqarorligiga salmoqli hissa qo'shmoqdalar.

Uchastkaning ilg'or ishchilari qatorida Farhod Aflyatunov, Otabek Soriyev, Fozil Jonjigitov,

Mustaqillik yillarida jamiyatimizda tinchlik, do'stlik va hamjihatlik muhitini kuchaytirish, inson qadri, huquq va manfaatlarini ta'minlash, mintaqamizda yaxshi qo'shnichilik aloqalarini yanada rivojlantirish, Vatanimizning buyuk kelajagini ta'minlashda quvonarli yutuqlarga erishildi.

ULAR KO'PCHILIKKA IBRAT

SINALGAN ODAM ELDA AZIZ BO'LADI

O'zbekistonimizning ravnaqiga munosib hissalarini qo'shib kelayotganlar orasida "O'zmetkombinat" AJ ishchi-xodimlarining ham munosib o'rinlari bor. Ezgu g'oyaga sadoqat insonning bilimi va malakasi, irodasi, kuch-quvvatini ona xalqi, vatani manfaati yo'lida safarbar etish ulug' maqsadlarga erishish yo'lida bor kuch-quvvatini bag'ishlashga tayyor turishda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Qahramoni, katta po'lat erituvchi Olim To'ychiyev mehnati, ibratli hayot yo'li bilan ko'pchilikka ibrat namunasi bo'lib kelmoqda. So'nggi yillarda vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanganlar mehnati ham ko'pchilikka ibratlidir. Katta usta Omonbek Alimatov "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" faxriy unvoni, po'lat erituvchi Abdurahmon Turdimurotov va po'lat quyuvchi To'liqin Mamadaliyev, elektr uskunalarini ta'mirlash ustasi Sergey Gechu, kran mashinisti Jamila Tursunqulova, usta Ismoil Isroilov "Do'stlik" ordeni, metall saralovchisi Marhabo Arziyeva, boshqaruv pulti operatori Oltinoy Karabaye va "Mehnat shuhrati" ordeni, operator Abdumo'min Mirzamatov, kran mashinisti Shahnoza Patxitdinova "Shuhrat" medali bilan mukofotlandilar. Ular eng



ma'suliyatli ishlab chiqarish jarayonlarida sinovdan muvaffaqiyatli o'tishgan. Sinalgan odam esa elda aziz bo'ladi.

Inson o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina xalq e'tiboriga tushadi. Vatanga foyda keltiradi. Korxonamizda xalqimiz, vatanimiz koriga yaraydigan insonlar ko'pchilikni tashkil etadi.

"Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida o'tgan istiqlolimizning 34 yilligi milliy g'oya g'alabasining jo'shqin tantanasi sifatida nishonlandi. Har bir inson o'z ozod va obod Vatani, oilasini, onasini, farzandini sevgan-dek sevishi, uning gullab-yashnashi uchun jon-jahdi bilan kurash olib borishi maqsadga muvofiq ekanligi mustaqillik bayramining umummilliy tantanalari ruhida o'z aksini topdi.

Abduvoit SALOMOV.

O'Z KASBINING USTASI

Farrux Omonov 2009-yildan buyon kombinatda ishlaydi. Mehnat faoliyatini u Avtotransport xizmatida haydovchilikdan boshlagan. Ammo 2018-yilda Ferroqotishmalar ishlab chiqarish bo'linmasi ishga tushirilgach, u avtomobil kabinasidan bu bo'linmadagi koloshnikka ishlov berish mashinasi kabinasiga o'tirdi.

Bugun Farrux ferroqotishmalar eritish uchun mo'ljallangan ruda-termik pechda eritma jarayonini kuzatuvchi mashinist. Uning vazifasi sifatli eritma tayyorlashga yordam berish, pechni suv bilan sovutiladigan elementlarning avariya darajasida kuyishidan va issiqlik yo'qotilishidan asrash. Aytisa bo'ladiki, u o'z vaqtida pechdagi eng kichik o'zgarishlarni ham ilg'ab, olovni nazorat ostida ushlab turadigan mutaxassis.

16 yillik mehnati davomida Farrux haqiqiy ustozga aylandi. Shogirdlari Jamshid Mirahmedov, Muzaffar Yo'ldoshev va Vohid Aminov bugun uning yonida mehnat qilib, hurmat bilan tajribasidan bahramand bo'lishmoqda.

Hamkasblari agar Farrux tinch bo'lsa — demak pech ham tinch. Agar uning kayfiyati yaxshi bo'lsa, ishonch bilan aytish mumkinki — eritma zo'r chiqadi, deb hazillasadilar.

SO'RAGAN EDINGIZ

MA'LUMOTNOMA BERILADIMI?

Oila a'zosi kasal bo'lganda unga qaragan xodim "progul" yozilmasligi uchun qanday yo'l tutadi, ishxonasiga qanday ma'lumotnoma beradi?

A. Sodiqova.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2015-yil 20-martdagi 25-son buyrug'i bilan tasdiqlangan yo'riq-nomaning 31-bandiga asosan ambulatoriya sharoitida parvarishga muhtoj bo'lgan o'n to'rt yoshdan katta bemorni parvarishlash uchun yetti kalendar kunidan oshmagan muddatga mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi.

Ya'ni uyda 14 yoshdan katta kasal bemorni qaragan shaxsga 7 kunlik mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi. Ambulatoriya sharoitida parvarishga muhtoj bo'lgan o'n to'rt yoshga yetmagan bemor bolani parvarishlash uchun uning onasiga 14 kalendar kundan oshmagan muddatga mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi.

Ona bo'lmagan yoki betob bo'lganda har ikki holatda ham mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor bilan birga yashash yoki yashamasligidan qat'iy nazar, boshqa oila a'zolariga beriladi.

Oilada ikki va undan ortiq o'n to'rt yoshga to'lmagan bola navbatma-navbat kasallikka chalinsa, mehnatga layoqatsizlik varaqasi yoki bemor bolani parvarishlaganlik bo'yicha mehnatga layoqatsizlik ma'lumotnomasi ularning har biri bo'yicha alohida beriladi.

"YUGUR YOKI O'L"

Bu bolalar ijtimoiy tarmoqlar va messengerlarda ishtirok etadigan juda xavfli o'yin. Noma'lum odamlar bolalarga adrenalin va tengdoshlari orasida maqtanish uchun harakatlanayotgan mashina oldida yugurishni taklif qilishadi. Bu o'yin yangi emas, lekin bu xavfli mashg'ulot qaytadan bolalar o'rtasida ommalashib bormoqda.

"Yugur yoki o'l" o'yinida bosh qahramon xavfli shartlarni bajaradi. Hamma shartlar harakatli bo'lib, tobora murakkablashib boraveradi.

Oxirida bolalar katta tezlikda harakatlanayotgan mashina yaqin qolganda uning yo'lini kesib yugurib o'tishadi. Mukofot esa "mashhur"lik va maqto.

Agar bosh qahramon mag'lub bo'lsa, o'ladi va o'yin tugaydi.

Voqea sodir bo'lganda videokameralarga tushib qolgan tasvirlarning barchasida yurib kelayotgan mashina bir necha qadam qolganda bolalar tez o'tib olishga va uni boshqalar tasvirga olishga harakat qilgan. Videolarda bolalarning dahshatli avtohalokatga uchragani ham tasvirlanadi.

2017-yilda paydo bo'la boshlagan bu o'yin natijasida mashina g'ildiraklari tagiga tushib, jarohatlanish va vafot etish holatlari ham uchrab turibdi.

Kattalardan farqli o'laroq bolalarda uddalay olaman, degan ishonch yuqori bo'ladi va o'zini namoyon qilgisi keladi. Shuningdek, o'z holiga tashlab qo'yilgan, o'ziga nisbatan ishonchi kam



bo'lgan bolalar bu kabi o'yinlar orqali tengdoshlari orasida "men"iga ega bo'lishni istaydi. Afsuski, bugun ana shunday kayfiyatdagi bolalar ko'p. Ota-onalarining bosimi, tengdoshlari orasida o'zini ojiz his qilishi va boshqa shaxslarning tazyiqlari ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi.

"Yugur yoki o'l" o'yinida bola yo'l bo'ylab yugurib jarohat olmasa ham, u buni qayta-qayta takrorlashni xohlaydi, ammo bu cheksiz davom eta olmaydi. Bu o'yinni tashkil qilayotganlar bolalarda o'zini saqlash instinktini yo'q qiladi, bolalarni tavakkal qilishga undaydi. Inson o'z hayotini xavf ostiga qo'yganda, uni qanday saqlashni biladi. Ammo o'smir tavakkal qilib, o'zini himoya qilish haqida o'ylamaydi.

O'yin tashkilotchilari maqsadi ham shu. Bolalarni mayib, majruh, qurbon qilish.

Hurmatli ota-onalar, metallurqlar!

Shunday xavflarning oldini olish uchun farzandlaringizning, telefonini tekshirib, ularga e'tiborliroq bo'lishni davr taqoza qilmoqda.

Diyo ZULFIQOROV.

OGOHO BO'LING!

HADISLAR
BO'STONI

Biror kishi bor aybingizni aytib, sizni haqoratlasa, siz uni unda bor aybi bilan ham haqoratlamang. Shunda buning savobi sizga, gunohi unga bo'lur.

Kim Allohga va Oxirat kuniga imon keltirgan bo'lsa, yaxshi gap aytsin yoki jim tursin!

Imom Buxoriy, Imom Muslim rivoyatlari.

Odamlarga minnatdorchilik izhor etaolmagan odam, Xudoga ham shukr qilaolmaydi.

Imom Termiziy rivoyatlari.

Kimki bir musulmonning aybini yashirsa, Alloh dunyo-yu oxiratta uning aybini yashiradi.

Har bir qilinadigan yaxshilikka sadaqa savobi berilur.

Kichiklarimizga rahm qilmagan, kattalarimizni ulug'lamagan – bizlardan emas.

Imom Abu Dovud va Imom Termiziy rivoyatlari.

Qaysi kishi o'zganing aybini ko'rib, uni yashirsa, xuddi tiriklay ko'milgan qizni qabridan qutqargan kabi bo'ladi.

Imom Abu Dovud rivoyatlari.

To'plovchi Ibrohimjon domla INOMOV.

XALQ MAQOLLARI

Yaxshiga qilsang yaxshilik –
Ham aytadi, ham qaytadi.
Yomonga qilsang yaxshilik –
Na aytadi, na qaytadi.

Ko'za kunda emas, kunida sinadi.

Odob bilan baxt topilar,
Sabr bilan – taxt.

Oshiqmagan olisga yetar.

Sabr – achchiq, mevasi – shirin.

Bir do'stimning iqrori

Amal kursisida o'tirganingda kim eng ko'p tovoningni yalasa, kursidan tushganingda o'sha birinchi bo'lib, sendan yuz o'giradi, deganlari qanchalik to'g'ri ekaniga o'zim ishonch hosil qildim.

Bir qadrdonim bor edi. Kun ora qo'ng'iroq qilib, haftada kelib turar, shifoxonaga tushib qolsam, "ovora bo'lmang", deyishimga qaramay hammadan avval yetib borar, ta'til paytida O'zbekistonning qaysi burchagida dam olmay, topib borar, "bir cho'qimgina" osh qilmasa,

"TUTINGAN" O'G'IL

ko'ngli joyiga tushmas edi... Bunisi ham mayli, ikki gapning birida "men sizni otam deganman, siz mening otamsiz", deb, Xudoni o'rtaga solib qasam ichardi...

Mansabim jinday o'zgargan edi, "bolamni" yo'qotib qo'ydim. Surishtirsam boshqa ota izlab yurgan ekan...

O'tkir HOSHIMOV.
"Daftar hoshiyasidagi bitiklar".

IBRATLI VOQEA

FARQ NIMADA?

Ikki xodim – bir vazifa – ikki xil natija. Sabab nimada?

Bir korxonaga ikki yosh yigit bir vaqtda ishga qabul qilinadi. Ikkalasi ham bir xil vazifada ish boshlaydi. Vaqt o'tadi, ikki yil o'tib, ulardan birining maoshi sezilarli darajada oshib ketadi.

Bundan norozi bo'lgan yigit rahbar qabulxonasiga kirib, nohaqlik haqida gapiradi. Holbuki, u rahbarning hamma narsani kuzatib borayotganidan bexabar edi.

Rahbar shoshilmaydi. Hodisani tushuntirish uchun amaliy yo'l tutadi. Norozi bo'lgan yigitga topshiriq beradi:

– Bor, bozordan temir-beton konstruksiya uchun bir tonna armatura olib kel.

Yigit shoshilib topshiriqni bajaradi – armaturani olib keladi.

– Bu armatura necha yil xizmat qiladi? – deb

so'raydi rahbar.

Yigit jim. Aniq ma'lumot yo'q. Boshqa savollariga ham javob yo'q.

Shunda rahbar ikkinchi yigitni ham chaqirib, shu vazifani unga topshiradi.

Oradan ko'p o'tmasdan u ham armaturani olib keladi. Ammo bu safar, yigit rahbar so'ramasidan ma'lumotlarni ayta boshlaydi:

– Diametri – 36 mm. armatura "O'zmetkombinat"da ikki oy avval ishlab chiqarilgan. Bozorda hozirgi paytda shunday armaturadan 120 tonna mavjud. Tonnasi 8 million so'm. Bu armatura betonni mustahkamlash uchun tayyorlangan va Germaniya standartlariga mos xalqaro sertifikatga ega. Termomexanik usulda mustahkamlangani uchun uy-joy, ko'priklar kabi inshootlarda ishlatish mumkin. Korroziyaga chidamli. Agar temir-beton konstruksiyalarda foydalanilsa, 70 yildan ortiq muddat mustahkamligini yo'qotmaydi.

Bu ma'lumotlarni eshitgan birinchi yigit, hamkasbining nega undan ko'proq maosh olishini to'liq tushunib yetdi.

XULOSA:

Ish joyidagi farq diplomda yoki yoshda emas, balki bilim, mas'uliyat va tashabbusda namoyon bo'ladi. Haqiqatni qabul qilish – rivojlanishning birinchi qadamidir.

Ismat DIYOROV.



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Qur'onda boylik haqida nima aytilgan?

O'zbekiston metallurgiya zavodi qurilishiga kim rahbarlik qilgan?

Kombinatimizda po'lat zoldirlar stani qurilishi qachon boshlangan?

Bilasizmi, qaysi hayvon umrining 70 foizini uxlab o'tkazadi?

Qaysi tabiat nemati inson tanasida yuz foiz parchalanishini bilasizmi?

Qog'oz pullar ilk marotaba qaysi davlatda muomalaga kiritilgan?

Oydagi kraterlardan 2 tasiga buyuk ajdodlarimiz nomi berilgan. Ular kimligini bilasizmi?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

* O'zbekiston Mustaqillik deklaratsiyasi O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1990-yil 20-iyunda e'lon qilingan edi.

* 1991-yilning 31-avgust kuni Mustaqillik deklaratsiyasi asosida "O'zbekiston Respublikasi-

ning Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun qabul qilingan.

* Mustaqillikning birinchi yilida zavodimizda 807 ming tonna po'lat eritilib, 761 ming tonna navli prokat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

* Mustaqillik yillarida dastlabki amalga oshirilgan eng yirik loyiha asosida "O'zmetkombinat"da zoldir prokatlash stani qurilib, ishga tushirilgan.

UZOQUMR KO'RISH
GAROV

Olimlar qalampirni iste'mol qilish yurak-qon tomir kasalliklari, saraton va boshqa har qanday sabablardan o'lim xavfini kamaytiradi degan xulosaga kelishdi.

Agar siz har kuni qalampir iste'mol qilsangiz, kasalliklar natijasida qaytmas jarayonlar kuzatilishi 14 foizga kamayadi. Bundan tashqari, qalampirni haftasiga to'rt martadan ko'proq iste'mol qiladigan odamlarda yurak xastaligidan vafot etish ehtimoli uchdan bir foizga kamroq bo'ladi.

Oshqozonga zarar yetkazmasdan, sog'liqqa foyda keltirishi uchun siz kuniga 10 gramm-dan ko'p bo'lmagan qalampirni iste'mol qilishingiz kerak.



MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati.

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta oyda ikki marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.